

## OQOVA SUVLARNI IFLOSLANISHINI OLDINI OLISH VA SUV RESURSLARINI TIKLASH YO‘LLARI

**Usmonova Nodiraxon Akramovna PhD**

Farg‘ona politexnika instituti,

**Abdug‘aniyeva Gulchexraxon Soliyevna,**

Farg‘ona politexnika instituti magistranti

Email: [nurnoza1@gmail.com](mailto:nurnoza1@gmail.com)

**Annotatsiya:** Sanoat rivojlanishining o‘sishi bilan ifloslantiruvchi chiqindi suvlar hajmi muhit ortadi, bu esa suv tizimlarining ekologik muvozanatiga olib keladi va inson tanasiga zararli ta‘sir. Maqolada usullar va usullar tasvirlangan oqova suvlarni tozalash va yanada zamonaviy tozalash inshootlaridan foydalanish

**Kalit so‘zlar:** Oqova suvlar, tozalash, usullar, oqova suvlar hajmi, atrof-muhit, tozalash inshootlari, sanoat, suv tizimi.

## WAYS TO PREVENT POLLUTION AND RESTORE WATER RESOURCES

**Abstract:** With the growth of industrial development, the volume of waste water that pollutes the environment increases, which leads to an ecological balance of water systems and has a detrimental effect on the human body. The article describes the methods and methods of wastewater treatment and the use of more modern treatment facilities.

**Key words:** Wastewater, Treatment, Methods, Volume Of Wastewater, Human Body, Environment, Treatment Facilities, Industry, Water System.

Respublikamizda jamiyatning barqaror rivojlanishi, aholining yashash ko‘rsatgichlari, hududning ekologik holati muxandislik kommunikatsiyalarining ishlash samarasi bilan bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi paytda suv havzalari

ifloslanishining oldini olishga juda katta ahamiyat berilmoqda. Sanoat korxonalaridan chiqadigan oqova suvlar inshootlarda muayyan tozalanib, ular yana suv havzalariga oqiziladi. Shu bilan birga suv havzalarini maʼlum darajada ifloslantiradi. Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan suv havzalarining sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan qator amaliy chora-tadbirlar koʻrilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz hududiy infratuzilmasining eng muhim tarkibiy qismi xisoblangan, insonlarning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantiruvchi, uy-joylar va aholi punktlarining har jihatdan shinam va qulay boʻlishini taʼminlaydigan kommunal soha va uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda ichimlik suvi taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi toʻgʻrisida”gi 2017 yil 20 apreldagi qarori qabul qilingan. Kommunal sohaning taraqqiyot darajasi va faoliyat samaradorligi aholining shunga mos hayot sifatini shakllantiradi, turmush darajasi va hayot tarzini aks ettiradi, iqtisodiy salohiyatni yanada yuksaltirish omillaridan biri boʻlib xizmat qiladi. Bularning barchasi oʻzaro bogʻliq boʻlib, sifatli xizmat sogʻlom jamiyat garovidir.

Suvni ifloslovchi manbalar orasida eng muhim oʻrinni sanoat va maishiy kommunal xoʻjalikdan chiqqan oqova suvlar egallaydi. Sanoat chiqindi suvlarida tirik organizm uchun xavfli boʻlgan har xil kislotalar, fenollar, vodorod sulfati, ammiak, mis, rux, simob, mishyak, xrom va boshqa zaharli moddalar yogʻ, neft mahsulotlari mavjud boʻlib, ular sanoat korxonalarida ishlatilgan oqova suvlar bilan birga daryo, koʻl va suv omborlariga qoʻshilib ularni ifloslaydi. Soʻngi yillarda jahonda toʻqimachilik sanoati korxonalarining oqava suvlarini tozalash sohasida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ushbu ishlar bizga eng samarali tozalash usullarini bayon qilishga imkon beradi. Koʻpgina hollarda mualliflar oqava suvlarni tozalashning fizik-kimyoviy usullaridan foydalanishning maqsadga muvofiq emasligini taʼkidlashadi. Reagentlarning katta sarflanishi bilan asosan suyuqlikni aniqlashtirishga erishiladi, erigan organik birikmalar miqdori yetarli darajada kamayadi va suyuqlik chirib qoladi.

Shuning uchun suv resurslarini ifloslanishdan saqlashda va uni qayta tiklashda quyidagi tadbir-choralar amalga oshirilishi kerak:

- suv resurslarining sifati pasayib ketishdan saqlash, iflos oqava suvlar miqdorini kamaytirishga erishish. Sanoatda suvdan foydalanishning aylanma sistemasiga o'tish zarur. Shunda chuchuk suv tejab qolinadi, ifloslangan suvning suv havzalariga oqizilishiga chek qo'yiladi, natijada daryo, ko'l, suv omborlari, kanal suvlari toza saqlanadi;

- iflos chiqindi suvlar miqdorini kamaytirib, suv resurslarining toza saqlashda rejali ravishda har bir korxonada qoshida chiqindi suvlarni tozalovchi inshootlar qurish va tozalash usullarini takomillashtirib borish lozim;

- suv resurslarini toza saqlashda sanoat korxonalarida sovitish ishlarini suv yordamida emas, havo yordamida amalga oshirish usullarini qo'llash zarur. Bunda chuchuk suvning 60-70 foizi tejaladi;

- suv ist'emol qilishning ilg'or fan-texnika yutuqlariga asoslangan me'yorlarini ishlab chiqish;

- suv resurslarini toza saqlab, ularni muhofaza qilishda chiqindi iflos suvdan sug'orishda foydalanishga o'tish zarur;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shahar va korxonalarining ishlab chiqarish oqova suvlarining tarkibi hamda turlari o'rganib chiqiladi, ishlab chiqarish oqova suvlarining tozalash usullari tahlil qilinadi va tarkibida muallaq moddalar bo'lgan oqova suvlarni zamonaviy inshootlarda tozalash tavsiya qilinadi. Suv resurslarini ifloslanishdan saqlashda va uni qayta tiklash bo'yicha amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

6. Abduganiev Nazirjon Nabijonovich, Mirzaeva Gulchexra Sotvoldievna, Abduganiev Numonjon Nabijonovich Puti intensivnosti rabot aeratenkov s pnevmaticheskoy aeratsiey // Universum: texnicheskie nauki. 2019. №12-1 (69). (data obraopeniya: 23.05.2022). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-intensivnosti-raboty-aeratenkov-s-pnevmaticheskoy-aeratsiey>

7. Mirzaeva Gulchexra Sotivoldievna, Jalilov Lutfiyor Sotvoldievich, Abduganiev Nazirjon Nabijonovich, Dadakuziev Muzaffar Raxnomoyevich Problema ekologii pri utilizatsii stroitelnix materialov na primere intensivatsii stroitelstva v Uzbekistane // Universum: texnicheskie nauki. 2019. №12-1 (69). (data obrao‘eniya: 23.05.2022). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-ekologii-pri-utilizatsii-stroitelnih-materialov-na-primere-intensifikatsii-stroitelstva-v-uzbekistane>
8. Sotivoldievna, M. G., & Nabizhonovich, A. N. (2021). In'act of industrial wastewater on the environment. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 869-873.
9. Akramovna, U. N., & Ismoilovich, M. R. (2021). Flow Around a Plate at Nonzero Cavitation Numbers. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(12), 142-146.
10. Akramovna, U. N., Ahmadjonovich, U. A., & Ishankulovich, K. S. FLOW PRESSURE ON THE ROTATION OF THE PRESSURE WATER DISCHARGE OF THE KARKIDON RESERVOIR AND VELOCITY DISTRIBUTION ALONG SECTION. Chief Editor.
11. Mamatisaev, G. I., & Abdullaeva, I. (2021). Effective Solutions of Water Resources. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(12), 253-259.
12. Usmonova, N. A. (2021). Structural Characteristics of the Cavern at a Fine Bubbled Stage of Cavitation. Middle European Scientific Bulletin, 18, 95-101.
13. Ishankulovich, K. S., & Akramovna, U. N. (2021). Simulation of the Lift of Two Sequential Gate Valves of the Karkidon Reservoir. Middle European Scientific Bulletin, 18, 148-156.
14. Jovliev, O. T., Khujakulova, M. K., Usmonova, N. A., & O‘tbosarov, S. R. (2021). Modeling the Theory of Liquid Motion Variable on the Way Flow. Middle European Scientific Bulletin, 18, 455-461.